

Berdiyev Doston Abduvoitovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

San'atshunoslik fakulteti

Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi o'qituvchisi

Qurbanmurodova Sevara Sa'dullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-kurs talabasi

TASVIRIY SAN'ATNI PORTRET JANRI ORQALI O'RGANISH (USTOZ-SHOGIRD TIZIMI)

Annotatsiya: Maqolada portret janri orqali tasviriy san'at fanini o'rgatish qoidalari. Ushbu janrda turlicha talqinlar bilan ishlash shu bilan birgalikda ustoz-shogird an'analari asosida ijod qilish afzallikkleri haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: portret janri, konstruktiv, tuslar, chiziqli-konstruktiv, psixologiya, xarakter.

Tasviriy san'atda inson bilan bog'liq mavzu asosiy o'rnlardan biri hisoblanadi. Qadim-qadimdan rassomlar inson gavdasini hamda yuzini tasvirlash bilan qiziqib, takrorlanmas asarlar yaratib kelishmoqda. Inson portretini tasvirlash eng murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan qadimgi odamlar uning go'zalligini namoyon etishga harakat qilganlar.

Mamlakatimiz hududidan topilgan eramizdan avvalgi taxminan ikki minginchi yillarga mansub harbiy kishi, ayollarning haykaltaroshlik portretlari fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi.

Portret (frans. Portrait – tasvir) –tasviriy san'at janrlaridan biri. Portret janrida asosiy obyekt bu inson hisoblanadi. U bir kishi, ikki va undan ortiq guruhli kishilardan iborat boishi mumkin.

Portret janrida inson boshini chizish uchun shakllardan foydalanib narsaning o'ziga qarab qoralamalar ishlash mashqlariga asoslanadi. Asosan portret chizishni o'rgatishda antik davrga mansub gipsdan yasalgan Dovud bosh bo'laklarini (ko'z, burun, lab, qulqoq) naturadan tasvirlash orqali boshlanadi. Bundan keyin boshning gipsdan yasalgan kesik shakli namunasi (keyin Ekorshe Gudon)ni chizish, undan keyin esa, antik davr gips bosh namunalari; Apollon, Venera, Suqrot, Gomer kabi bosh haykali bosh rasmini o'ziga qarab tasvirlash mashqlari vositasida amalga oshiriladi.

Portretni boshlang'ich gipslarda tasvirlash avvalo, inson bosh suyagini yaxshi bilish, xarakterini chiqara olish bilan birga soya-yorug', tuslar bilan ishlashni o'rganishga yordam beradi.

Masalan: portret chizish jarayonida uni turli xil shakllarga bo'lish orqali yanada soddalashtirishga yordamlashadi. Huddi shu yo'lda tasviriy san'atni portret janri bilan bog'lash, insonning tashqi olam bilan bog'lanishiga, atrof-muhitga ranglar bilan qarashga va ichki kechinmalarini bilish ham katta rol o'ynaydi. Zamонавиy rassomlar portret ishlash bo'yicha professional malakaga ega bo'lish bilan bir qatorda, inson psixologiyasini yaxshi ishlay olishi, uning yuz tuzilishini tasvirlash orqali ichki dunyosini ko'rsata olishi zarur. Albatta portret janrini yaxshi bilish va kasbining ustasi bo'lish uchun ko'plab mashqlar bajarishi, inson bosh chanog'i tuzilishi, plastik anatomiyasini o'rgangan bo'lishi zarur. Aytishadiku nimagadir erishmoqchi bo'lsang astoydil harakat qil shunda samarasini ko'rasan.

Yuqorida aytib o'tilganidek portret chizishdan oldin uning tuzilishini gipslarda o'rganish eng yaxshi va samarali bo'ladi. Bulardan

1.Boshning gipsli modeli bo'laklari.

2.Tirik bosh, uning yelka kamari bilan rasmini bajarish.

Huddi shunday qayta-qayta takrorlash jarayonida qo'l harakatlarining bevosita o'z-o'zidan bir narsaga o'rganib qolishi va har qanday holatda ham chizib keta olishiga yordam beradi. Bunda asosan qo'l va ko'zlar harakati katta rol o'ynaydi. Chunki ko'zlar ko'rgan narsasini eslab qolish qobiliyatini ega, qo'llarda ham o'z sezgilar mavjud. Masalan, har bir insonning tana a'zolarida sezgi organlari mavjud va aqliy faoliyatini ishlashini kuzatamiz.

Ko'rish idroki qonuniyatlariga rioya qilgan holda rasm chizuvchi birinchi navbatda, boshning umumiy ko'rinishini tasvirlab, uning shakli-shamoyili xususiyatlarini ko'rsatishi zarur.

Huddi shunday ko'zlar ko'rganini eslash orqali qo'llarga buyruq beradi va portret chizish o'z malakasini oshirish, aqliy faoliyatini yaxshilash tomonlama ham o'z o'rniga ega.

Bu masalaga to'la oydinlik kiritish uchun biz har bir chiziq bosh suyagi bo'laklari bilan asoslanadigan anatomiq qurilish qonuniyatlariga bog'liq ravishda odam bosh shaklining chiziqli-konstruktiv sxemasini ko'rib chiqishini tavsiya etiladi.

Chiziqli-konstruktiv sxema bo'yicha chizishda har bir tana a'zosining orasidagi masofalarini olish va o'lchab chiqish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Albatta har bir rasm chiroyli va sifatli chiqishi uchun rassom chizayotgan portretiga o'z mehrini berishi kerak.

Tasviriy san'atni portret janri orqali o'rganishning ahamiyati juda keng qamrovli va muhim. Quyida ba'zi asosiy jihatlarni keltirib o'tish mumkin:

1. Ijodiy ifoda: Portret san'ati shaxsiy xususiyatlarni, hissiyotlarni va xarakterni ifodalash imkonini beradi. O'quvchilar portret chizish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar.
2. Yuz ifodalarini o'rganish: Portretlar orqali odamlarning yuz ifodalarini va emotsiyalarini (mimika) aniqlashni o'rganish mumkin. Bu, nafaqat san'atda, balki insonlar bilan muloqotda ham muhimdir.
3. Anatomiq bilim: Portret chizish jarayonida odam tanasining anatomiysi, masalan, bosh va yuz shakllari, nisbati va boshqa detallar haqida chuqurroq bilim olish mumkin.
4. Tarixiy va madaniy kontekst: Portret san'ati tarixi orqali turli davrlar va madaniyatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bu, o'quvchilarga san'atning rivojlanishini va uning jamiyatdagi rolini anglashda yordam beradi.
5. Texnik ko'nikmalar: Portret chizish orqali o'quvchilar turli texnikalarni (qalam, akvarel, moybo'yoq va h.k.) o'zlashtirishadi, bu esa ularning san'atda ko'nikmalarini kengaytiradi.
6. Ijtimoiy va psixologik jihatlar: Portretlar odamlararo munosabatlari va psixologik holatlarni o'rganishga yordam beradi. O'quvchilar shaxsiyatni tushunishni o'rganish orqali empatiya va ijtimoiy ongni rivojlantiradilar.

7. Shaxsiy rivojlanish: Portret chizish shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini anglashda yordam beradi. O‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini tasvirlash orqali o‘zlarini ifodalashni o‘rganadilar. Bunda albatta avtoportretning o‘rni ham yuqori.

Shu sababli, tasviriy san’atda portret janrini o‘rganish, o‘quvchilarga ko‘plab foydali ko‘nikmalarni va bilimlarni berish bilan birga, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Klassik qonuniyatlar bosh qurilishining nisbatlarini va o‘ziga xos xususiyatlarini tuzatish va to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatadi. Bu qonuniyatlarni bilish rassomga naturada kuzatiladigan qonuniyatdan chetga chiqish alomatlarini sezishga yordam beradi.

Tasvir etilayotgan turli xarakterlarni kuzatish va darhol tasvirga tuzatishlar kiritish mo‘ljaldagi rasmga aniqlik va o‘zgartirishlar kiritishda keng imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi.

Albatta har bir portret chizishda qiziqqan va o‘zi tanigan havas qilgan insoni bo‘ladi, chunki Leonardo da Vinchi ham biz kabi talabalar va o‘quvchilarning eng birinchi ustozni, eng yaxshi rassom nomi bilan tanilgan.

Hozirgi kunda ham shunday insonlar borki o‘zi o‘rgana olishmagan narsalarini zamon bilan ham nafas bo‘lgan holda o‘quvchi-shogirdlariga o‘rgatib kelayotgan o‘qituvchi rassomlarimiz juda ham ko‘p.

Ustoz-shogird an’analari har qanday sohada muhim tizim hisoblanadi. O‘rganganlarini talaba yoki o‘quvchiga ulashgan ustoz soha sirlarini ulashib nafaqat mutaxassis yetishtiradi balki o‘z bilimlari bilan o‘rtoqlashadi.

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti pedagogik innovatsion klasteri asosida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu oliy ta’lim muassasasi va maktab hamkorligini o‘z ichiga oladi. “Tasviriy san’at” yo‘nalishidagilar uchun ustoz-shogird tizimida “Talaba talabaga ustoz, talaba talabaga shogird” tamoyili asnosida 10 ga yaqin ustozlar tomonidan yurtiladigan to‘garaklar va talabalar yurg‘izadigan mini to‘garaklar joriy etilgan. Bundan maqsad, ustozlar o‘zlarining bilimdon ijodkor shogirdlariga tasviriy san’at sirlarini o‘rgatsa, ular qolgan talabalarga (o‘zlashtirishi past) mini to‘garaklar asosida o‘rgatishadi. Bu chuqur o‘ylangan puxta tizim. O‘qituvchi hammaga birdek yondashishi zarur bo‘lsada auditoriya soatlari yetarli emas. Shuning uchun mustaqil ta’lim hamda to‘garaklar bilimlarni mustahkamlashda yordam beradi. “Art-studio” ijodiyot markazida “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi Berdiyev Doston Abduvoitovich boshchiligidagi tashkil etilgan ijodiy to‘garak tashkil etilgan. Bu to‘garakda shogirdi Qurbonmurodova Sevara ham mutnazam qatnashib ijodiy ishlar yaratib kelmoqda. Bundan maqsad bo‘lajak o‘qituvchini har tomonlama yetuk kadr etib tayyorlash. Zamon talablariga javob beradigan o‘qituvchi bugungi davr talabi. Chuqur bilim olish uchun albatta o‘qituvchi va talabaning maslahat asosida qilingan ijodiy va ilmiy ishlarida aks etishi kerak. Hozirda portret janrida bir nechta asarlar yaratildi. Janrlar ichida eng murakkabi ham portret janri hisoblanadi. Kelajakda ustoz tayyorlagan shogird albatta tasviriy san’at olamida o‘rniga rassom bo‘lishiga ishonamiz. Yosh san’atkorni tajribali ustoz rahbarligida o‘qitish orqali ustoz o‘z bilim, ko‘nikma va badiiy uslubini o‘quvchilarga yetkazadi, unga rivojlanish va o‘z san’at asarlarini yaratishga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'lifi steam interaktiv ta'lifini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
2. Бердиев Достон Абдувойтович, Султанов Хайтбай Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
3. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. *PEDAGOGS Jurnalı*, 31(1), 142–148.
4. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'lifini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187–193.
6. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527.
7. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2024). Pedagogika oliv ta'lif muassasalarida badiiy studiyalarni tashkil etishning ahamiyati. Iqro indexing, 10(1), 177-181.
8. Qurbanmurodova Sevara Sa'dullayevna // Bolalarda ilmiy-texnik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish // Zamonaviy fizika va astronomiyaning dolzab muammolari, yechimlari va o'qitish uslublari Respublika ilmiy-amaliy anjuman, 2024 – 256-258b.